



ELEKTRON XARIDLAR MEXANIZMINING EVOLYUTSIYASI VA UNING HUQUQIY ASOSLARI

Muminova Gulchehra

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi

Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi

ORCID: 0009-0003-4268-9416

m.gulchexra@list.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada elektron xaridlar mexanizmining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari, bu jarayonga ta'sir etuvchi iqtisodiy, texnologik va institutsional omillar tahlil qilingan. Xorijiy olimlarning ilmiy yondashuvlari umumlashtirilgan hamda O'zbekiston Respublikasida elektron davlat xaridlari tizimining huquqiy asoslari "Davlat xaridlari to'g'risida"gi 2021-yil 22-apreldagi O'RQ-684-sonli Qonun doirasida o'rganib chiqilgan. Tadqiqot natijasida elektron xaridlar mexanizmini rivojlantirishga oid ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: elektron xaridlar, davlat xaridlari, raqamli transformatsiya, shaffoflik, huquqiy tartibga solish, maxsus axborot portali.

ЭВОЛЮЦИЯ МЕХАНИЗМА ЭЛЕКТРОННЫХ ЗАКУПОК И ЕГО ПРАВОВАЯ ОСНОВА

Муминова Гулчехра

Высшая школа бизнеса и предпринимательства при

Кабинете Министров Республики Узбекистан

Аннотация. В данной статье проанализированы этапы формирования и развития механизма электронных закупок, а также экономические, технологические и институциональные факторы, влияющие на данный процесс. Обобщены научные подходы зарубежных ученых, а правовые основы системы электронных государственных закупок в Республике Узбекистан рассмотрены в рамках Закона Республики Узбекистан № ЗРУ-684 от 22 апреля 2021 года «О государственных закупках». По результатам исследования разработаны научно-практические предложения по развитию механизма электронных закупок.

Ключевые слова: электронные закупки, государственные закупки, цифровая трансформация, прозрачность, правовое регулирование, специальный информационный портал.

EVOLUTION OF THE ELECTRONIC PROCUREMENT MECHANISM AND ITS LEGAL BASIS

Muminova Gulchehra

*Graduate School of Business and Entrepreneurship under the
Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan*

Abstract. *This article analyzes the stages of formation and development of the electronic procurement mechanism, as well as the economic, technological, and institutional factors influencing this process. The scientific approaches of foreign scholars are generalized, and the legal foundations of the electronic public procurement system in the Republic of Uzbekistan are examined within the framework of the Law of the Republic of Uzbekistan No. ZRU-684 dated April 22, 2021, "On Public Procurement." Based on the results of the research, scientific and practical proposals for improving the electronic procurement mechanism have been developed.*

Keywords: *electronic procurement, public procurement, digital transformation, transparency, legal regulation, special information portal.*

Kirish.

Zamonaviy iqtisodiyotning raqamli transformatsiyasi davlat sektori faoliyatining barcha yo'nalishlarini qamrab olmoqda. Bu jarayonning eng muhim tarkibiy qismlaridan biri bu davlat xaridlari tizimini elektronlashtirish hisoblanadi. Dunyo bo'yicha davlat xaridlarining umumiy hajmi yalpi ichki mahsulotning o'rtacha 12-15 foizini tashkil etadi, Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti (OECD) ma'lumotlariga ko'ra esa a'zo davlatlarda bu ko'rsatkich yiliga 13 trillion AQSh dollaridan oshadi. Shu bois xarid qilish tartib-taomillarining samaradorligi, shaffofligi va ochiqligi nafaqat moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish, balki davlat boshqaruvi sifatining indikatori sifatida ham e'tirof etilmoqda.

Jahon tajribasida elektron xaridlar mexanizmi XX asrning 90-yillari oxiridan boshlab jadal rivojlana boshladi. Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida 2014-yildagi 2014/24/EU direktivasi bilan elektron xaridlar majburiy shaklga aylantirildi, Janubiy Koreyaning KONEPS tizimi esa butun dunyoda etalon model sifatida tan olindi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro savdo huquqi bo'yicha Komissiyasi (UNCITRAL) tomonidan ishlab chiqilgan model qonunchilik ham ko'plab davlatlar uchun huquqiy asos bo'lib xizmat qildi. Ushbu xalqaro tajriba shuni ko'rsatdiki, xaridlarning elektron shakliga o'tkazilishi davlat byudjeti mablag'larini o'rtacha 6-15 foiz tejashga, korrupsiya darajasini sezilarli kamaytirishga va raqobat muhitini kengaytirishga imkon beradi.

O'zbekiston Respublikasida elektron xaridlar mexanizmini rivojlantirish bo'yicha keng qamrovli islohotlar 2018-yildan boshlab izchil amalga oshirilmoqda. Xususan, Prezidentning 2019-yil 5-dekabrda PQ-4544-sonli qarori (2019) asosida 2020-yil 1-apreldan boshlab davlat xaridlari bo'yicha tanlov savdolarining elektron shakliga bosqichma-bosqich o'tish ko'zda tutilgan bo'lib, bu islohot davlat xaridlari bozorida oshkoralik va raqobatni ta'minlash, narxlarning pasayishiga va byudjetni tejashga xizmat qilmoqda. 2021-yilda qabul qilingan "Davlat xaridlari to'g'risida"gi yangi tahrirdagi Qonun esa tizimni yaxlit huquqiy bazaga birlashtirdi, ilgari 30 dan ortiq normativ-huquqiy hujjat bilan tartibga solingan sohani unifikatsiya qildi. Hozirda xaridlar xarid.uzex.uz, xt-xarid.uz, elektron do'kon, kooperatsiya portali kabi maxsus elektron platformalar orqali amalga oshirilmoqda.

Shunga qaramay, elektron xaridlar mexanizmining evolyutsion rivojlanishi, uning zaruriy shart-sharoitlari va huquqiy asoslarini ilmiy-nazariy jihatdan yaxlit tahlil qilish zaruriyati saqlanib qolmoqda. Mavzuning dolzarbligi shundaki, Sanoat 4.0 davrida sun'iy intellekt, blokcheyn va katta ma'lumotlar texnologiyalarining tatbiq etilishi davlat xaridlari tizimini mutlaqo yangi bosqichga olib chiqmoqda, bu esa qonunchilik va institutsional asoslarni ham muntazam takomillashtirib borishni talab qiladi. Shu sababli elektron xaridlar mexanizmining

evolyutsion taraqqiyoti, ta'sir etuvchi omillar va O'zbekiston qonunchiligidagi huquqiy asoslarini kompleks tahlil qilish zarurati yuzaga keladi.

Adabiyotlar sharhi.

Elektron xaridlar mexanizmi va uning huquqiy tartibga solish masalalari ko'plab xorijlik olimlar tomonidan tadqiq qilingan. Ushbu yo'nalishdagi ilmiy tadqiqotlar, asosan, elektron xaridlarning samaradorligini oshirish omillari, amalga oshirishning muvaffaqiyat mezonlari hamda huquqiy va institutsional asoslarini o'rganishga qaratilgan.

Jumladan, Amerikalik olim Thai (2001) o'zining fundamental tadqiqotida davlat xaridlarini nazariy jihatdan qayta ko'rib chiqqan. U davlat xaridlarining asosiy maqsadlari sifatida sifat, o'z vaqtidalik, narx, ishlab chiqarish, moliyaviy va texnologik xavflarni kamaytirish, raqobatni kuchaytirish hamda halollikni saqlashni ko'rsatadi. Thai (2001) fikriga qo'shilgan holda, biz shuni ta'kidlashni o'rinli deb hisoblaymizki, bu mezonlar aynan elektron xaridlar mexanizmida to'laqonli realizatsiya qilinadi, chunki faqat raqamli platformalar shaffoflik va kuzatuvchanlikni bir vaqtning o'zida ta'minlay oladi. Bundan tashqari, muallif yondashuvini zamonaviy sharoitda kengaytirish zarur deb xisoblaymiz, sababi, raqamli davrda halollik tushunchasi nafaqat insoniy omilga, balki algoritmlarning xolisligi va ma'lumotlar himoyasiga ham taalluqli bo'lib bormoqda.

Britaniyalik tadqiqotchilar Croom va Brandon-Jones (2005, 2007) o'zlarining tadqiqot ishlarida Buyuk Britaniya davlat sektorida elektron xaridlarni joriy etish tajribasini tahlil qilganlar. Olimlar elektron xaridlarni "sotib olish jarayonining barcha bosqichlarini, xususan, izlash, topish, muzokaralar, sotib olish, qabul qilish va sotib olingandan keyingi baholashni veb-asoslangan dastur orqali amalga oshirish" tarzida ta'riflaydilar. Shuningdek, ular xodimlarni malakaviy tayyorlash va tashkiliy qo'llab-quvvatlash elektron xaridlarni muvaffaqiyatli joriy etishning asosiy omillari ekanligini uqtiradilar. Qayd etish joizki, O'zbekiston sharoitida ham davlat buyurtmachilari va ishtirokchilarning raqamli kompetensiyasini muntazam oshirib borish elektron xaridlar samaradorligining hal qiluvchi shart-sharoitlaridan biri hisoblanadi.

Avstraliyalik olimlar Vaidya, Sajeev va Callender (2006) davlat sektorida elektron xaridlarni muvaffaqiyatli joriy etishning 11 ta muhim omilini aniqlaganlar. Ularning xulosasiga ko'ra, yuqori rahbariyat qo'llab-quvvatlashi, o'zgarishlarni boshqarish, amaliyotlarning standartlashtirilishi kabi tashkiliy va boshqaruvga oid omillar texnologik omillarga nisbatan ahamiyatliroqdir. Ushbu xulosaga qo'shilgan holda shuni qo'shimcha qilish o'rinliki, O'zbekiston tajribasida Prezident qarorlari va qonunchilik darajasida berilgan siyosiy qo'llab-quvvatlash aynan shu "yuqoridan quyiga" yondashuvining amaliy namunasi bo'lib, islohotlarning izchilligini ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Rotchanakitumnui (2012) elektron davlat xaridlarining boshqaruv tizimiga ta'siri masalasini chuqur tahlil qilgan. Olim elektron xaridlar xarajatlarni kamaytirish, xarid qilish vaqtini qisqartirish va ta'minotchilar bilan munosabatlarni rivojlantirish uchun kuchli vosita ekanligini, bundan tashqari, elektron xaridlar korrupsiyani kamaytirish, hisobdorlik, shaffoflik va samaradorlikni oshirishda muhim rol o'ynashini dalillaydi. Bugungi kunda elektron xaridlar nafaqat antikorrupsiya vositasi, balki ijtimoiy va ekologik maqsadlarni ilgari surishning ham muhim mexanizmiga aylanmoqda, masalan, yashil xaridlar va ijtimoiy mas'uliyatli xaridlar konsepsiyasi shu asosda rivojlantirilmogda.

Mavidis va Folinas (2022) elektron xaridlar evolyutsiyasini avlodlar kesimida o'rgangan hamda sun'iy intellekt, blokcheyn, katta ma'lumotlar, bulutli texnologiyalar kabi Sanoat 4.0 texnologiyalari davlat xaridlari sohasiga qanday tatbiq etilayotganini tizimli tahlil qilganlar. Ular elektron xaridlar tizimlari demokratik hisobdorlikni mustahkamlashning muhim tarkibiy qismi ekanligini, chunki ular qonunlar, qoidalar va institutsional nazorat mexanizmlari bilan cheklangan tarzda ishlashini ta'kidlaydilar. Mazkur xulosani to'ldirgan holda shuni qo'shimcha qilamizki, O'zbekistonda elektron xaridlarning 4.0 bosqichiga o'tish imkoniyati mavjud va bu bosqichda sun'iy intellektdan foydalangan holda dastlabki narxni avtomatik baholash, shubhali

bitimlarni aniqlash va ta'minotchilarni reytinglash kabi funksiyalarni joriy etish kelajakdagi ilmiy-amaliy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda.

Adabiyotlar sharhi natijalari shuni ko'rsatadiki, elektron xaridlar mexanizmi bir vaqtning o'zida boshqaruv-tashkiliy, texnologik-innovatsion hamda huquqiy-institutsional kabi bir necha ilmiy yondashuvlar doirasida o'rganilmoqda. Bu uchta yo'nalishning yaxlit uyg'unligi elektron xaridlar tizimining samaradorligini ta'minlaydigan asosiy omil sanaladi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu maqolada elektron xaridlar mexanizmining evolyutsiyasi, uning shakllanish bosqichlari hamda huquqiy asoslari tadqiq etildi. Tadqiqot davomida analiz va sintez, qiyosiy-huquqiy tahlil, tizimli yondashuv, tarixiy yondashuv, umumlashtirish hamda ilmiy abstraksiya usullaridan foydalanildi. Metodologik asos sifatida elektron xaridlar tizimini tashkil etish, davlat xaridlarini raqamlashtirish, shaffoflik va samaradorlikni oshirish, shuningdek ushbu sohani huquqiy tartibga solishga oid mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy qarashlari, normativ-huquqiy hujjatlar hamda tadqiqot natijalariga tayanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi

Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda xaridlar tizimining evolyutsiyasi to'rt bosqichga ajratiladi: Xaridlar 1.0, 2.0, 3.0 va 4.0. Mavidis va Folinas (2022) ushbu taraqqiyot konsepsiyasini tizimlashtirgan holda, har bir bosqichning texnologik va tashkiliy xususiyatlarini batafsil tavsiflaydilar.

Birinchi bosqich, xaridlar 1.0 (XX asrning 70-90-yillari) an'anaviy, qog'oz asosidagi xaridlar tizimi bo'lib, ta'minotchilar bilan masofali munosabatlarni saqlash va xarajatlarni qisqartirishga qaratilgan edi. Bu bosqichda barcha tartib-taomillar qo'lda, hujjatli shaklda amalga oshirilgan, bu esa jarayonning davomiyligi va noshaffofligiga sabab bo'lgan.

Ikkinchi bosqich, xaridlar 2.0 (1990-yillar oxiri – 2000-yillar) kompyuterlashtirilgan ish jarayonlari va elektron aloqa vositalarini joriy etish bilan bog'liq. Bu bosqichda xarid qilish faoliyati adolatli qiymat va ta'minotchilar bilan hamkorlik munosabatlarini o'rnatishga qaratildi. Aynan bu davrda Internet savdo inqilobi elektron xaridlar uchun zamin yaratdi.

Uchinchi bosqich, xaridlar 3.0 (2000-yillardan boshlab) elektron xaridlar platformalarining keng tarqalishi bilan tavsiflanadi. Croom va Brandon-Jones (2007) fikricha, bu bosqichda xarid qilish tsiklining barcha bosqichlari internet orqali boshqariladi, bulutli texnologiyalar keng tatbiq etila boshlandi. Elektron auksionlar, elektron do'konlar, elektron katalog va elektron kontraktlar kabi asboblari aynan shu davrning mahsuloti hisoblanadi.

To'rtinchi bosqich, xaridlar 4.0 (2010-yillar oxiridan) Sanoat 4.0 paradigmasi doirasida shakllanmoqda. Mavidis va Folinas (2022) ta'kidlashlaricha, bu bosqichda sun'iy intellekt, blokcheyn, narsalar Interneti (IoT), katta ma'lumotlar tahlili va bulutli texnologiyalar xaridlar jarayoniga integratsiya qilinadi. Natijada jarayonlar qisman yoki to'liq avtomatlashtiriladi, ta'minot zanjirida real vaqt rejimida tahlil imkoniyati paydo bo'ladi, shaffoflik va xavfsizlik esa blokcheyn tizimlari orqali mustahkamlanadi.

O'zbekiston misolida elektron xaridlar mexanizmining taraqqiyotini uch bosqichga ajratib ko'rsatish mumkin. Birinchi bosqich (2018-yilgacha) sohaning 30 dan ortiq normativ-huquqiy hujjat bilan tartibga solingan, yaxlit tizim shakllantirilmagan davri. Ikkinchi bosqich (2018-2021-yillar) 2018-yilgi "Davlat xaridlari to'g'risida"gi birinchi Qonun qabul qilinishi, maxsus axborot portalining joriy etilishi va elektron shaklga bosqichma-bosqich o'tkazish davri. Uchinchi bosqich (2021-yildan hozirgi vaqtgacha) 2021-yilgi yangi tahrirdagi Qonun asosida tizimning unifikatsiya qilinishi, bir nechta ixtisoslashgan elektron platformalarning rivojlantirilishi va xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish davri.

Olimlar ilmiy tadqiqot ishlarida elektron xaridlarni muvaffaqiyatli joriy etishning muhim omillarini ikki katta guruhga bo'lib o'rgananlar. Bular, tashkiliy-boshqaruv omillari va texnologik omillar (Vaidya, va hammualliflar, 2006). Ushbu tasnifni asos qilib olib, O'zbekiston

sharoitida elektron xaridlar mexanizmining samarali ishlashini ta'minlovchi omillarni quyidagicha tizimlashtirish mumkin (1-jadval).

1-jadval

O'zbekiston sharoitida elektron xaridlar mexanizmining samarali ishlashiga ta'sir etuvchi omillar tizimi

Omillar guruhlar	Izoh
<i>Siyosiy-huquqiy</i>	Bularga davlat siyosatining izchilligi, yuqori rahbariyatning qo'llab-quvvatlashi, qonunchilik bazasining mustahkamligi va xalqaro standartlarga mos kelishi kiradi.
<i>Texnologik-infratuzilmaviy</i>	Bularga elektron raqamli imzo (ERI) tizimining mavjudligi, ishonchli va tezkor internet infratuzilmasi, maxsus axborot portalining texnik imkoniyatlari, kiberxavfsizlik, ma'lumotlar bazalari integratsiyasi kiradi.
<i>Ijtimoiy-kadrlar</i>	Bu guruhga davlat buyurtmachilari va ishtirokchilarning raqamli savodxonligi, kasbiy mahorat prinsipi, shuningdek tadbirkorlik subyektlarining elektron platformalarda faol qatnashishi kiradi.
<i>Institutsional-boshqaruv</i>	Bularga vakolatli davlat organining (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi) faol roli, maxsus axborot portalini operatorining samarali ishlashi, monitoring va nazorat tizimining mustahkamligi kiradi.

Jadvalda keltirilgan omillar bilan bir qatorda, elektron xaridlar mexanizmining samarali faoliyat yuritishi uchun bir qator zaruriy shart-sharoitlar ham mavjud. Jumladan, yaxlit qonuniy-me'yoriy bazaning shakllanganligi, raqamli infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanganligi, elektron raqamli imzo va identifikatsiya tizimlarining uzluksiz ishlashi, idoralararo elektron hamkorlik mexanizmlarining yo'lga qo'yilganligi, ochiq ma'lumotlar portalining mavjudligi, nizolarni ko'rib chiqishning samarali tartibi hamda malakali kadrlar tayyorlash tizimining shakllanganligi shular jumlasidandir. O'zbekiston sharoitida mazkur shart-sharoitlarning asosiy qismi yaratilgan bo'lsa-da, ularni zamonaviy talablar asosida izchil takomillashtirib borish elektron xaridlar tizimi samaradorligini oshirishning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda.

O'zbekiston Respublikasida elektron xaridlar tizimining huquqiy asosi yaxlit qonuniy-me'yoriy baza sifatida shakllangan. Mazkur bazaning markaziy hujjati "Davlat xaridlari to'g'risida"gi 2021-yil 22-apreldagi O'RQ-684-sonli Qonun hisoblanadi. Ushbu Qonun oldingi, 2018-yilgi O'RQ-472-sonli Qonunning o'rnini egallab, 2021-yil 24-iyuldan kuchga kirgan. Yangi Qonun qabul qilinishidan avval soha 30 dan ortiq normativ-huquqiy hujjat bilan tartibga solingan, buning natijasida huquqiy kolliziyalar, ko'p bosqichli kelishishlar va korrupsiyaga sharoit yaratuvchi takrorlanuvchi tartib-taomillar mavjud edi. Yangi Qonun qabul qilinishida BMTning UNCITRAL model qonunchiligi, Yevropa Ittifoqi, AQSh, Rossiya, Belarus, Qozog'iston qonunchiligi xalqaro tajribasi inobatga olingan.

Qonunchilikda elektron xaridlar tizimining amal qilish tartibi, uning asosiy tamoyillari hamda tashkiliy-huquqiy mexanizmlari aniq belgilangan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonunining 3-moddasida "elektron davlat xaridlari" tushunchasiga huquqiy ta'rif berilgan bo'lib, unda elektron do'kon va boshlang'ich narxni pasaytirish uchun o'tkaziladigan auksion kabi maxsus axborot portalining dasturiy-texnik kompleksi orqali axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositasida davlat xaridlarini amalga oshirish usullari nazarda tutiladi. Mazkur norma elektron xaridlarning mohiyatini huquqiy jihatdan mustahkamlab, ularni davlat xaridlari tizimining alohida va zamonaviy shakli sifatida e'tirof etadi.

Shuningdek, Qonunning 30-moddasida xarid qilish tartib-taomillarini elektron shaklda amalga oshirish mumkinligi belgilangan bo'lsa, 31-moddada davlat xaridlariga oid axborotlarni maxsus axborot portalida joylashtirish majburiyati mustahkamlangan. Bunda

joylashtiriladigan ma'lumotlarning to'liq, xolis va ishonchli bo'lishi alohida talab sifatida qayd etilgan. Mazkur qoidalar elektron xaridlar tizimida ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash, davlat buyurtmachilari hamda xarid ishtirokchilari uchun teng axborot maydonini shakllantirish nuqtai nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi.

Qonunda davlat xaridlarini amalga oshirish jarayoniga nisbatan qator majburiy talablar ham belgilangan. Jumladan, 22-moddaga muvofiq, xaridlarni rejalashtirish majburiy hisoblanadi. 28-moddada davlat xaridlariga oid axborotni davlat tilida e'lon qilish talabi nazarda tutilgan. 29-moddada esa xarid ishtirokchilariga qo'yiladigan mezonlar belgilab berilgan bo'lib, ularga shartnomani bajarish uchun zarur texnik, moliyaviy, moddiy va kadrlar resurslarining mavjudligi, shartnoma tuzish vakolatiga egalik hamda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha qarzdorlikning mavjud emasligi kiradi. Ayni paytda manfaatlar to'qnashuvining oldini olishga qaratilgan talablar hamda kelgusi chorakka mo'ljallangan davlat xaridlarining reja-jadvallarini maxsus axborot portalida joylashtirish majburiyati tizimning tartibiligi va hisobdorligini kuchaytiradi.

Elektron xaridlar mexanizmining samarali ishlashi faqat majburiy talablar bilan emas, balki tegishli huquqiy cheklovlar bilan ham ta'minlanadi. Xususan, davlat xaridlari predmetini tavsiflashda aniq tovar belgisi, patent, foydali model, sanoat namunasi yoki eksklyuziv huquqqa havola qilishga yo'l qo'yilmaydi, elektron do'kon orqali amalga oshiriladigan ayrim xaridlar bundan mustasno. Shu bilan birga, mansabdor shaxslar, xarid komissiyasi a'zolari va ekspertlarning xarid natijalaridan shaxsiy manfaatdor bo'lishi taqiqlanadi. Affillangan shaxslarning xarid jarayonida ishtirok etishiga doir cheklovlarning o'rnatilishi ham raqobat muhitini saqlash, tanlov jarayonining xolisligini ta'minlash va korrupsion holatlarning oldini olishga xizmat qiladi. Xorijiy tadqiqotlarda ham bunday cheklovlar davlat xaridlarida halollik prinsipining amaliy kafolati sifatida talqin etiladi.

Elektron xaridlar tizimining institutsional asoslari ham mazkur mexanizmning barqaror faoliyat yuritishida muhim o'rin tutadi. Ushbu tizimda vakolatli davlat organi sifatida O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, maxsus axborot portali operatori, xarid komissiyalari hamda davlat xaridlari sohasidagi shikoyatlarni ko'rib chiqish bo'yicha Komissiya faoliyat yuritadi. Ayniqsa, nizolarni ko'rib chiqishga ixtisoslashgan alohida organning mavjudligi davlat xaridlari tizimida huquqiy himoya mexanizmlarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu jihat avvalgi tartib bilan qiyoslanganda yanada muhimroq ko'rinadi, chunki ilgari davlat xaridlarini nazorat qilish va kelib chiqadigan nizolarni ko'rib chiqish masalalari yetarli darajada tizimlashtirilmagan edi.

Elektron xaridlar tizimining huquqiy asoslari faqat bazaviy qonun bilan cheklanib qolmaydi. Ularni to'ldiruvchi normativ-huquqiy hujjatlar qatoriga Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 26-yanvardagi 37-son qarori bilan tasdiqlangan "Davlat xaridlari markaziy axborot portali"ni yuritish bo'yicha funksional talablar, tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) milliy klassifikatorini yuritish qoidalari, shuningdek "Elektron raqamli imzo to'g'risida"gi, "Elektron hujjat aylanishi to'g'risida"gi va "Elektron hukumat to'g'risida"gi qonunlar kiradi. Mazkur hujjatlar elektron xaridlar tizimining nafaqat huquqiy, balki tashkiliy va texnologik asoslarini ham mustahkamlaydi.

O'zbekistonda elektron xaridlar mexanizmining huquqiy va institutsional asoslari izchil shakllantirilgan bo'lib, ular davlat xaridlarida shaffoflik, ochiqlik, raqobat, xolislik va hisobdorlikni ta'minlashga qaratilgan. Shu bilan birga, mazkur tizimning samaradorligini yanada oshirish uchun amaldagi huquqiy normalarni qo'llash amaliyotini takomillashtirish, institutsional mexanizmlarni mustahkamlash va raqamli boshqaruv vositalarini izchil rivojlantirib borish zarur hisoblanadi.

Amaliy natijalar shuni ko'rsatmoqdaki, elektron platformalar orqali amalga oshirilayotgan xaridlarning hajmi yildan-yilga o'sib bormoqda. Masalan, "O'zbekiston milliy elektr tarmoqlari" aksiyadorlik jamiyatining ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yil davomida faqat bitta korxonadan xarid.uzex.uz orqali 141,9 mlrd. so'mlik, xt-xarid.uz orqali 33,3 mlrd.

so'mlik, kooperatsiya portali orqali 22,1 mlrd. so'mlik, jami 197,2 mlrd. so'mlik tovar va xizmatlar xarid qilingan. Bu raqamlar elektron xaridlar mexanizmining amaliy samaradorligi va miqyosini yaqqol ko'rsatadi.

Shunga qaramay, O'zbekiston qonunchiligida ayrim takomillashtirish zarur bo'lgan jihatlar ham saqlanib qolmoqda. Xususan, raqamli iqtisodiyot sharoitida yuzaga kelayotgan sun'iy intellektdan foydalangan holdagi avtomatlashtirilgan qarorlar, blokcheynga asoslangan smart-shartnomalar, transchegaraviy elektron xaridlar kabi yangi masalalar hozircha qonunchilikda to'liq o'z aksini topmagan. A. Mavidis va D. Folinis (2022) ta'kidlaganidek, bu masalalar Xaridlar 4.0 bosqichi uchun kelajakdagi huquqiy-me'yoriy islohotlarning asosiy yo'nalishlarini tashkil etadi.

Xulosa va takliflar.

Olib borilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, elektron xaridlar mexanizmi o'tgan chorak asr davomida an'anaviy qog'oz asosidagi tizimdan Sanoat 4.0 texnologiyalari asosidagi intellektual platformalargacha bo'lgan murakkab evolyutsion yo'lni bosib o'tdi. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, elektron xaridlar mexanizmining samarali ishlashi uchun huquqiy, texnologik va kadrlar omillarining uyg'un rivojlanishi talab qilinadi.

O'zbekiston Respublikasida elektron xaridlar mexanizmi 2018-yildan boshlab izchil rivojlantirilmoqda va 2021-yilgi "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonun bilan yaxlit huquqiy bazaga ega bo'ldi. Qonun elektron davlat xaridlari tushunchasini aniq belgilagan, maxsus axborot portalining faoliyatini tartibga solgan, xaridlar jarayonida shaffoflik, raqobat va halollik prinsiplarini mustahkamlagan. Shunga qaramay, raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi qonunchilikni doimiy takomillashtirib borishni talab qilmoqda.

Tadqiqot asosida quyidagi ilmiy takliflarni ilgari surish mumkin deb xisoblaymiz:

Birinchidan, Sanoat 4.0 texnologiyalarini elektron xaridlar tizimiga integratsiya qilish bo'yicha huquqiy asoslarni shakllantirish zarur. Xususan, "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonunni sun'iy intellektdan foydalangan holda dastlabki narxni avtomatik baholash, shubhali bitimlarni aniqlash, ta'minotchilarni reytinglash kabi imkoniyatlarni huquqiy tartibga solish bilan to'ldirish maqsadga muvofiq. Bu elektron xaridlarning 4.0 bosqichiga o'tishning muhim shart-sharoiti hisoblanadi.

Ikkinchidan, davlat buyurtmachilari va ishtirokchilarning raqamli kompetensiyasini muntazam oshirib borish bo'yicha yaxlit davlat dasturini ishlab chiqish taklif etiladi. Kadrlar tayyorlash elektron xaridlar samaradorligining hal qiluvchi omillaridan biri. Bu borada oliy ta'lim muassasalari bazasida maxsus magistratura dasturlari va qisqa muddatli malaka oshirish kurslarini joriy etish o'rinli.

Uchinchidan, elektron xaridlar natijalarini tahlil qilish va baholash bo'yicha ochiq ma'lumotlarga asoslangan yagona monitoring tizimini yaratish zarur. Bu tizim muvaffaqiyat mezonlari asosida ishlab chiqilib, davlat xaridlari samaradorligi, tejamkorlik darajasi, raqobat ko'rsatkichlari, shikoyatlar statistikasi kabi indikatorlarni real vaqt rejimida tahlil qilish imkonini berishi kerak. Bu esa "yaxshi boshqaruv" prinsipining amaliy tatbiqiga xizmat qiladi.

Umuman olganda, elektron xaridlar mexanizmining evolyutsion rivojlanishi va huquqiy asoslarining takomillashuvi davlat boshqaruvi sifatini oshirish, jamoat mablag'laridan oqilona foydalanish va sog'lom raqobat muhitini ta'minlashning muhim omili sifatida o'z ahamiyatini saqlab qolmoqda.

Adabiyotlar / *Литература* / Reference:

Croom S., Brandon-Jones A. (2005) *Key Issues in E-Procurement: Procurement Implementation and Operation in the Public Sector // Journal of Public Procurement. Vol. 5, No. 3. p. 367-387.*

Croom S., Brandon-Jones A. (2007) *Impact of E-Procurement: Experiences from Implementation in the UK Public Sector* // *Journal of Purchasing and Supply Management*. Vol. 13, No. 4. p. 294-303.

Knight L., Harland C., Telgen J., Thai K.V., Callender, G., McKen, K. (2012) (Eds.) *Public Procurement: International Cases and Commentary*. New York: Routledge.

Mavidis A., Folinas D. (2022) *From Public E-Procurement 3.0 to E-Procurement 4.0: A Critical Literature Review* // *Sustainability*. Vol. 14, No. 18. Art. 11252.

OECD. (2025) *Digital Transformation of Public Procurement: Good Practice Report*. Paris: OECD Publishing, -77 p.

Qaror (2019) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-dekabrdagi PQ-4544-sonli "Davlat xaridlari tizimini yanada takomillashtirish va davlat xaridlari jarayoniga tadbirkorlik subyektlarini keng jalb qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.

Qaror (2021) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 26-yanvardagi 37-sonli qarori.

Qonun (2021) O'zbekiston Respublikasining «Davlat xaridlari to'g'risida»gi 2021-yil 22-apreldagi O'RQ-684-sonli Qonuni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi.

Rotchanakitumnuai S. (2012) *Critical Governance Concerns of Thailand E-Government Procurement* // *CONF-IRM Proceedings*. Paper 52.

Thai K.V. (2001) *Public Procurement Re-Examined* // *Journal of Public Procurement*. Vol. 1, No. 1. p. 9-50.

Vaidya K., Sajeev A.S.M., Callender G. (2006) *Critical Factors that Influence E-Procurement Implementation Success in the Public Sector* // *Journal of Public Procurement*. Vol. 6, No. 1/2. p. 70-99.